

7-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-1

I variant

Sana: _____

Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Franklar hukmdori Karlga "Buyuk" nomi berilishi sababi noto'g'ri izohlangan javobni toping. (Bilish–2,5 ball)

- A) harbiy yurishlarga boshchilik qilganligi uchun
- B) yirik saltanat tuzganligi uchun
- C) maorif va madaniyatga homiylik qilgani uchun
- D) sulolaning eng yoshi katta vakili bo'lganligi uchun

2. Quyidagilardan germanlar tomonidan rimliklarga yetkazib berilgan mahsulotlarni belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) bronza idishlar, taqinchoqlar
- B) shisha, sopol buyumlar
- C) teri, qahrabo
- D) qurollar, qimmatbaho matolar

3. Somiy tilli xalqlar tomonidan tuzilgan davlat berilgan javobni toping. (Bilish–2,5 ball)

- A) Xan
- B) Bobil
- C) Chexiya
- D) Mali

4. Buyuk Alfredga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang. (Qo'llash – 4,5 ball)

- 1) Uning lotincha ismidan Yevropa mamlakatlari hukmdorlari o'zlarini korol deb atay boshladi;
- 2) Angliyada birinchi marta alohida doimiy soliq – "daniyaliklar puli"ni joriy etdi;
- 3) Langobardlarni mag'lub etib, ularning qirolini asirga oldi;
- 4) Arablar hukmronligidagi Ispaniyaga yurishlar qilib, Ispan markasini tuzdi;
- 5) Uning davrida "Anglosakson solnomasi" tuzilgan;
- 6) 879-yilda normannlarni o'z hukmronligi ostidagi yerlar daxlsizligini tan olishga majbur etdi.

- A) 1, 3, 4
- B) 2, 5, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 3, 6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga "ha" yoki "yo'q" deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Xalifalik tarkibidagi mamlakatlar arablar tomonidan majburiy tarzda bo'ysundirilganligi uchun bu mintaqada boy madaniyat yaratilmadi		
2	Xalq qo'zg'olonlari va hokimiyat uchun kurashlar xalifalikning siyosiy qudratini oshirgan		
3	Umaviylar boshqaruvi davrida xalifa lavozimi nasliy merosga aylantirildi, davlat xazinasini hamda davlat arxivi tashkil etildi		
4	Xalifa Abu Bakr davrida mamlakatni boshqarish uchun Maslahat kengashi tashkil qilindi		

- A) 1-yo'q, 2-yo'q, 3-ha, 4-ha
- B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
- C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q
- D) 1-ha, 2-ha, 3-yo'q, 4-yo'q

6. Quyidagi hukmdorlarni ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Xlodvig; 2. Genrix II; 3. Otton I; 4. Yustinian I.

a) Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlarning otliq qo'shinini yengadi;

b) Baronlarga harbiy xizmat o'rniga xazinaga "qalqon puli" solig'i to'lashlariga ruxsat berdi;

c) orzusi Rim imperiyasining 395-yildan oldingi chegaralarini tiklash edi;

d) Merovinglar sulolasiga asos soldi.

A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) to'g'ri berilgan javobni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

A) Polsha – Simeon – Vizantiya bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borildi

B) Vizantiya – Yustinian I – Avliyo Sofiya va San-Vitale ibodatxonalari bunyod etildi

C) Polsha – Oleg – davlatga asos soldi

D) Kiyev Rusi – Boleslav I Jasur – qirollik tojiga ega bo'ldi

8. Davlat va hukmdor juftligi mos berilgan javoblarni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Davlat	Hukmdor
1.	Franklar davlati	Pipin Pakana
2.	Angliya	Kanut
3.	Muqaddas Rim imperiyasi	Buyuk Karl
4.	Vizantiya	Irakliy I

A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

9. Quyidagilardan Shimoliy Afrikada (a) va Italiyada (b) joylashib, davlat tuzgan german qabilalarini toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

A) a-vandallar, b-ostgotlar B) a-anglosakslar, b-alanlar

C) a-vandallar, b-vestgotlar D) a-franklar, b-ostgotlar

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosasi to'g'ri yoki noto'g'riligini toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natiija
1	Moraviyaga Kirill va Mefodiyar kelishdi	Arab alifbosi yaratilib, Injil arab tiliga tarjima qilina boshlandi
2	Ryurikning davomchisi Oleg Kiyevni egalladi	Kiyev Rusi davlati quladi
3	Usmon xalifaligi davrida Eron Sosoniylari davlatini fath etish tugallandi	Arablar Amudaryo sohillariga chiqishdi

A) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri

B) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri

C) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri

D) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri

